

KEYINGI DAVRDA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI SO'Z TARKIBI BO'YICHA
QILINGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Nodirbek Nosirjon o'g'li Xabibillayev

Namangan davlat pedagogika instituti

O'zbek va xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

(morfemik1997@gmail.com)

Tel: +998944979772

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13639308>

Annotatsiya: morfema borasidagi yangicha qarashlar ilmiy tadqiqot ishlarida ham so'nggi davrlarda bo'y ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada mana shu masalalar bayon etilgan. Bundan tashqari, ushbu maqoladan muallifning tadqiqotlarda keltirilgan fikrlarga shaxsiy munosabatiga ham guvoh bo'lishingiz mumkin.

Tayanch so'z va iboralar: morfema, soddalashish, so'z tarkibi, kengaygan shakl, murakkab qo'shimchalar.

Abstract: new views on the morpheme have emerged in recent times in scientific research. These issues are discussed in this article. In addition, from this article you can witness the personal attitude of the author to the ideas presented in the studies.

Basic words and phrases: morpheme, simplification, word structure, extended form, complex adverbs.

Аннотация: в последнее время в научных исследованиях возникли новые взгляды на морфему. Эти вопросы обсуждаются в этой статье. Кроме того, из этой статьи можно убедиться в личном отношении автора к идеям, изложенным в исследованиях.

Основные слова и словосочетания: морфема, упрощение, структура слова, расширенная форма, сложные наречия.

KIRISH

Mazkur maqolada mavzuga oid bo'lgan o'zbek tilshunosligida keyingi davrlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar o'rin olgan. Bu orqali keyingi davrlardagi o'zbek tilshunosligining ushbu mavzuga bo'lgan munosabatini anglash mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Usmonova Mohira Kenjayeva. *"O'zbek tilida so'z morfem tarkibining soddalashishi"*. (PhD) dissertatsiya. 10.00.01. Ilmiy rahbar: Yormat Tojiyev. Samarqand – 2018.

Ushbu dissertatsiyada o'zbek tilidagi soddalashgan so'zlar tahlilga tortilgan. Sohaga oid talaygina ilmiy ishlar o'rganib chiqilgan. Tadqiqot ishining bizning mavzuyimizga ham aloqador joylari mavjudligi sabab undan ayrim holatlarni keltirib o'tamiz. Albatta, so'z tarkibi, hech shubhasiz, soddalashish jarayonini ham o'z qamroviga oladigan keng maydondir.

Dissertatsiyada so'zlar etimologik jihatdan ham tahlil qilingan. Soddalashish etimologiya bilan ham bog'liqligini hisobga olgan holatda tadqiqot ishining bu jihatini o'rinli deb bilamiz. Ammo so'zlarni tarkibga ajratishda esa, zamonaviylik muhim hisoblanadi. Etimologik jihatdan ajraladigan ammo bugungi kunga kelib ajralmas holga kelgan so'zlar talaygina. So'z tarkibi lug'atini tuzishda mana shu masalalarni hisobga olmaslik jiddiy muammolarga olib kelib qo'yadi. Bu esa, o'z navbatida, lug'atning ahamiyatiga sezilarli darajada putur yetkazadi.

Dissertatsiyada soddalashish sodda, qo'shma, juft va takroriy so'zlarning birikib ketishi natijasida ro'y berishi holatlari ham ko'rsatib o'tilgan.

- Qo'shma so'zlarda soddalashishga quyidagi misollar berilgan: *ana bu – anavi, mana bu – manavi, qayt aytayin – qaytayin, qayin ona – qaynona, qayin ota – qaynota, qaysi yoq – qayoq...* Bu turga yana *kelin – kel+in, boshmaldoq – bosh+barmoq, bo'yinturuq – bo'yin+turuq, oqsoqol – oq+soqol, mo'ylov – mo'y+lab, mo'ysafid – mo'y+safid* kabi so'zlar ham kiritilgan.

- Takroriy va juft so'zlarda soddalashish qismiga esa, quyidagilar kiritilgan: *ola-chipor – olachipor, og'a-ini – og'ayni...* Juft so'zlarning soddalashishiga oid holatlar, asosan, shulardan iborat edi. Bu kabi so'zlar juda kam bo'lgani uchun misollar ko'p berilmagan.

Takror so'zlarda soddalashish holatlariga quyidagi misollar berib o'tilgan: *shar-shar+a – sharshara, var-var+ak – varrak¹, zil-zil+a – zilzila, jim-jim+a – jimjima, zam-zam+a – zamzama...*

- Birikmalardagi soddalashish holatlariga quyidagilar kiritilgan: *sho'r suv – Sho'rsuv, yangi qo'rg'on – Yangiqo'rg'on, oq tepa – Oqtepa, katta qo'rg'on – Kattaqo'rg'on, yangi yo'l – Yangiyo'l...*

Shuningdek, qaratqichli yoki moslashuv munosabatli so'z birikmalarining qo'shma oykonimga aylanishi: *tomning orqasi – tomorqa, soyning bo'yi – soybo'yi².*

Bundan tashqari ega va kesim munosabatidagi sintaktik aloqaning uzilishi natijasida ham soddalashish yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun: *hol buki – holbuki, bari bir – baribir, va hol anki – vaholanki³...*

Har qanday morfemaning qo'shilishi so'zga qo'shimcha ma'no berishi lozim. Ammo ayrim qo'shimchalar mavjud. Ular so'zda mavjud bo'lsa ham, bo'lmasa ham ma'noga hech qanday ahamiyati yo'q. Bunday so'zlarga soddalashgan so'zlar deya qarash Usmonovanning dissertatsiyasida uchraydi. Quyidagilarga e'tibor bering: *so'ng – so'ngra, g'oyat – g'oyatda, qalqmoq – qalqimoq, surmoq – surtmoq – surkamoq...*

Shu o'rinda ushbu dissertatsiyani o'rganib chiqish jarayonida vujudga kelgan ayrim masalalarga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

- Usmonova o'zining ushbu tadqiqot ishida *og'zaki* so'zidagi *-aki* morfemasini asosga yaxlitlanishga ulgurgan deb hisoblab, ushbu so'zga soddalashgan so'z deya baho bermoqda. Ammo, bizning fikrimizcha, ushbu holat bugungi kun o'zbek tilshunosligi uchun noo'rindir. Sababi ushbu so'zning tarkibini tashkil etayotgan birliklar yana boshqa so'zlarning yasallishida bugungi kunda faol ishtirok etib kelmoqda. *Og'iz* leksemasi haqida to'xtalishning xojati yo'q deb hisoblaymiz. *-aki* morfemasi esa *tarsaki, yodaki, zo'raki* kabi so'zlarda asos qismga yangi ma'no berish vazifasini bajarmoqda. O'zbek tilidagi so'zlarni tarkibga ajratishdagi asosiy tamoyilga asoslanadigan bo'lsak (asos deb hisoblanadigan qism mustaqil qo'llana olishi lozim, qo'shimcha deb hisoblangan qism esa boshqa so'zlarga ham qo'shila olishi lozim), ushbu so'zlarning soddalashganligini isbotlay olmaymiz.

- *Tortiq* (sovg'a ma'nosida) *tuzoq, to'lqin, tutqun, tutum, to'lg'oq* kabi so'zlarning ham soddalashgan deb berilishini bugungi kun o'zbek tilshunosligidan kelib chiqib isbotlab bo'lmaydi. Ushbu so'zlarning tarkibidagi morfemalar boshqa so'zlarning yasallishida ham faol ishtirok etmoqda deyishimiz mumkin. Bundan tashqari, qo'shimchalarning xususiyatlarini ham ular qo'shilgan so'zlarda aniq sezilib turibdi.

¹ O'zbek tilining imlo qoidalariga nazar tashlasak, qo'shib yozish bobida shunday holat keltiriladi: takror taqlid so'zlardan hosil qilingan yasama ot va yasama fe'llar qo'shib yoziladi. Demak, sharshara va varrak so'zlari soddalashgan so'zlar emas, tarkibga ajralish xususiyatiga ega bo'lgan yasama otlardir. (Muallif)

² Bu kabi so'zlarning tarkibga ajratilmasligi masalasini ushbu ilmiy tadqiqot ishi davomida batafsil o'rganib chiqamiz.

³ Ushbu masalani ham mana shu ilmiy tadqiqot ishida davomida o'rganib chiqamiz.

Olima tarixan yasama bo'lib, keyinchalik yasamalik xususiyatini yo'qotgan - yasovchi qo'shimchalar o'zak bilan birikib ketgan holatlarga to'xtalib, ayniqsa, *-la* affiksi vositasida yasalgan fe'llarda shu hodisa ko'p uchrashini qayd etadi. Uning fikrlari A.G'ulomov fikrlariga uyg'unlashib ketgan. Ya'ni:

a) qo'shimcha aniq sezilib turgani holda, u qo'shilib kelgan o'zak morfema tarixiy taraqqiyot natijasida o'qilmay qolgan bo'lsa, bunday yasalmalar tarkibida soddalashi sodir bo'lgan va bu so'zni endi morfemalarga ajratish mumkin emas;

b) o'zak morfema mavjud ekanligi so'z tarkibida sezilib turgan bo'lsa-da, keyingi morfemani (qo'shimchani) undan ajratish mumkin bo'lmasa, uni alohida morfema sifatida baholash mumkin bo'lmasa, bunday so'zlarni ham morfemalarga ajratish mumkin emas;

c) qo'shimcha va yasovchi asos qo'shilgandan keyin yasalma tarkibida fonetik o'zgarish sodir bo'lib, o'zak bilan qo'shimcha chegarasini belgilash qiyin bo'lib qolgan bo'lsa, bunday holatda ham yasalmanni morfemalarga ajratish mumkin emas. Bu kabi yondashish A.G'ulomovning keyingi ishlarida ham qayd etiladi.

Muallifning o'zak morfema, morfemalarga ajratish kabi birliklarni ishlatishidan uning ham morfema borasidagi qarashlari haqida xulosa qilish qiyin emas. Ya'ni Usmonova ham morfemani boshqa mayda bo'laklarga bo'linmaydigan so'zning eng kichik tarkibiy qismi sifatida anglamoqda.

Usmonovanning fikricha, hozirgi o'zbek tili materiallarini kuzatish shuni ko'rsatadiki, bir bo'g'inli tub o'zak holdagi, sof o'zbek tiliga xos birliklarning yarmidan ko'pi aslida ikki morfemaning singishib ketishidan (ular tarkibidan asl o'zak morfemani ajratib olish mumkin bo'lmay qoladi va bu faqat etimologik tahlil orqali belgilanishi mumkin) hosil bo'lgan. Shuningdek, ikki va undan ortiq bug'inli va hozirgi kunda tarkibiy qismlarga (morfemalarga) ajratib bo'lmaydigan, tub o'zak yoki so'z deb baholanayotgan birliklarning miqdori ham ikki mingdan ortiq ekanligi kuzatiladi: *qishloq, o'dag'ayla, bugun, ko'mir, go'dak, buyrak, ko'rpacha, sholcha, o'tin, yaxshi, yomon, to'zon, shovqin, tutun, o'simlik, olg'a, ilg'or, ilgari, qattiq, o'pqn, yaylov, dumaloq, yumaloq, pishloq, cho'mich, o'rmala, buyruq, seskan, unnamoq* kabilar.

Ammo yuqoridagi fikrlarning barchasiga ham qo'shilib bo'lmaydi. *Ko'rpacha, o'simlik, qattiq, dumaloq, yumaloq, cho'mich, buyruq* kabi so'zlarning tarkibga ajratilmasligini bugungi kun o'zbek tilshunosligidan kelib chiqib isbotlab bo'lmaydi. Sababi ushbu so'zlarning tarkibiy qismlarini tashkil qilayotgan birliklar faol holda boshqa so'zlarda ham ishtirok etishlari mumkin. Bularning barchasiga alohida-alohida to'xtalib o'tishni lozim topmadik.

Qo'ziyev Umidjon Yandashaliyevich. *"O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda o'zlashma so'zlar tadqiqi"*. (PhD) dissertatsiya. 10.00.01. Ilmiy rahbar: Sharifa Iskandarova. Namangan – 2018.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi lug'atshunoslik tarixiga bag'ishlangan. Shu sabab ushbu bobda jahon va o'zbek lug'atchiligida amalga oshirilgan ishlar sanab o'tilgan. Bu orqali lug'atshunoslikning milliy til uchun naqadar ahamiyatli ekani ko'rsatib berilgan. So'zlarni tarkibga ajratishda o'zlashma so'zlarning ham o'rni ahamiyatga egaligi sabab bu dissertatsiya bizning ilmiy ishimizga bog'liq deb hisobladik.

Dissertatsiyada o'zlashma so'zlar qaysi tildan o'zlashganiga va o'sha tilda qanday ma'nolarni bildiradi-yu, bizning tilda qanday ma'noda o'zlashganiga e'tibor qaratilgan.

Uralov Azamat Begnarovich. *"O'zbek tili qo'shimchalari tizimida murakkab va "kengaygan shakl"lar"*. (PhD) dissertatsiya. 10.00.01. Ilmiy rahbar: T.O'.Mirzaqulov. Toshkent shahri – 2019.

Ushbu dissertatsiyada turkiy tillardagi morfemalarning ko'p ma'noliligi, omonimligi, sinonimligi va boshqa masalalar tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqotda morfem birliklarning kelib chiqishi, o'zaro munosabati, tildagi o'rni, vazifasi, farqi va o'xshash jihatlari aniqlangan va murakkab hamda "kengaygan birliklar"ning lisoniy xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, murakkab shakllarning qo'shma affikslardan farqi, o'zbek tili morfem tizimida fuziya elementlarining to'liq amal qilishi, lug'aviy birliklarning qo'shimchalarga aylanish jarayonida affiksoidlarning o'rni va bir qator boshqa masalalarga ham to'xtalib o'tilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Morfemaga so'zning tarkibiy qismi sifatida qarash uning turlarga (yetakchi va ko'makchi) ajratilishi lozimligini keltirib chiqaradi. Rus tilshunosligi ta'sirida olib kirilgan ushbu tamoyilning o'zbek tili uchun xos emasligini yuqorida ko'rib o'tdik. Shu bilan birga morfemani so'zning tarkibiy qismi sifatida qarash uni morfologik birlik sifatida baholanishiga, so'z yasalihi va shakl yasalihini morfologik hodisa deb tushunishga, oxir-oqibat "so'z tarkibi"ni "morfologik hodisa" sifatida tushunib "Morfologiya" bo'limida o'rganilishiga sabab bo'ladi. Shunday ekan, o'zbek tilshunosligida morfemaga so'zning tarkibiy qismi sifatida baho berib bo'lmaydi. Bu esa o'zbek tilshunosligida so'z tarkibining alohida bo'lim sifatida o'rganilishi lozim ekanligini anglatadi.

Bundan tashqari, yuqoridagi tahlillardan "so'zning ma'noli qismlari morfema deyiladi..."⁴ degan qoida ham xato ekani anglashiladi. Sababi ushbu ta'rif ham so'zning ma'noli qismlarini ikki qismga (yetakchi va komakchi) bo'lishni va alohida o'rganishni taqozo etadi. Shunday ekan, mazkur ta'rif ham o'zbek tilshunosligidagi morfema tushunchasiga mos kelmasligi aniq.

XULOSA

Shunday qilib, keyingi davrlarda ham morfema masalasi o'zbek tilshunosligida e'tibordan chetda qolgani yo'q. Shunday bo'lsa-da avvalgi qilingan ishlarni tadqiq etib, ularni davom ettirish o'rniga har kim o'z g'oyasi bilan xohlaganicha ushbu mavzuga yondashayotganini yuqoridagi tahlillardan ko'rib o'tdik.

References:

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi O'zbek adabiy tili. – T.: Tamaddun, 2022. – bet 121.
2. Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – бет 80.
3. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – бет 168.
4. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – T.: Fan, 2008. – bet 436.
5. Mengliyev B. va boshq. O'zbek tilining so'z yasalihi o'quv lug'ati. – T.: 2007. – bet 142.
6. Mahmudov N. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013. – bet 528.
7. Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили. – Т.: 2009. – бет 254.
8. Тожиёв Й. Ўзбек тили морфемикаси. – Т.: 1992. – бет 68.
9. Ўзбекистон ССР Фанлар академияси. Ўзбек тили грамматикаси. – Т.: Фан, 1973. – бет 609.
10. Nosirjon o'g'li, Xabibullayev Nodirbek. "ANALYSIS OF SOME WORDS WHICH ARE DIFFICULT TO DISTRIBUTE INTO UZBEK LANGUAGE." International journal of artificial intelligence 4.03 (2024): 592-594.

⁴ Тожиёв Й. Ўзбек тили морфемикаси. – Т.: 1992. 10- б.

11. Habibullayev, Nodirbek Nosirjon O'G'Li. "Qozoq Va O'zbek Tilidagi Modal So'Zlar Chog'Ishtirmasi." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.5 (2023): 27-33.



INNOVATIVE
ACADEMY